

MAHSULOTLARNI YASHIL BOZORDA BARQAROR VA SAMARALI SOTILISHI JARAYONINI AXBOROT TIZIMINI ISHLAB CHIQUISH

Uralov Olimjon Maxammadjonovich

Mustaqil tadqiqotchi, assistent

Rahbar: Nasimov Abdurashid

Dotsent, PhD

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada mahsulotlarni yashil bozorda barqaror va samarali sotilishi jarayonini axborot tizimini ishlab chiqish haqida soʻz yuritilgan. Axborotlashgan jamiyat iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy jihatdan yanada yuksalishga, mamlakatda ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini va mehnat unumdorligini oshirishga, iqtisodiyotni makro va mikro darajada boshqarishni takomillashtirish hamda istiqbolli ilmiy yoʻnalishlarni rivojlantirishga katta zamin yaratib beradi.

Kalit soʻzlar: raqamli iqtisodiyot, mahsulot, yashil bozor, axborot tizimi, ishlab chiqarish, axborot-kommunikatsiyalar texnologiyalari.

Abstract. This article talks about the development of an information system for the sustainable and effective sale of products in the green market. The information society creates a great ground for economic and scientific-technical progress, the quality of products produced in the country and the improvement of labor productivity, the improvement of macro- and micro-level management of the economy, and the development of promising scientific directions.

Key words: digital economy, product, green market, information system, production, information and communication technologies.

Абстракт. В данной статье рассказывается о разработке информационной системы для устойчивой и эффективной реализации продукции на зеленом рынке. Информационное общество создает прекрасную почву для экономического и научно-технического прогресса, качества производимой в стране продукции и повышения производительности труда, совершенствования управления экономикой на макро- и микроуровне, развития перспективных научных направлений.

Ключевые слова: цифровая экономика, товар, зеленый рынок, информационная система, производство, информационно-коммуникационные технологии.

Mamlakatimiz ishlab chiqarish sohasini axborotlashtirish jamiyat rivojlanishining obyektiv jarayoni hamda zarur boʻlgan axborotlarni yigʻish, saqlash, uzatish, qayta ishlash va takdim etishning

International Multidisciplinary Scientific Global Conference on Education and Science

Hosted Online from Warsaw, Poland on October 10th, 2022.

www.conferencepublication.com

tabiiy davomidir. Iqtisodiyot, ishlab chiqarish, aloqa, ilmiy-tadqiqot, ta'lim, tibbiyot va biznes sohalaridagi mehnatsifati, mehnat unumdorligi va samaradorlik darajasini yuksaltirish ularda tadbiriq qilinayotgan eng zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan bog'liq. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari to'plangan axborot mahsulotlarini kishilarga tezkor sur'atda yetkazib sermehnatlik darajasini kamaytirgan holda mavjud muammolarni hal etish uchun keng imkoniyatlar yaratib bermoqda. SHuning uchun ham axborot-kommunikatsiyalar texnologiyalarini iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida samarali qo'llash mamlakatni texnologik va iqtisodiy jihatdan rivojlantirishni ifodalovchi ko'rsatkich bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida ham yuqori natijalarga erishishi, jahon iqtisodiy tizimida to'laqonli sheriklik o'rnini egallay borishi, inson faoliyatining barcha jabhalarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan yuqori darajada foydalanish ko'lamlari qanday bo'lishiga hamda bu texnologiyalar ijtimoiy mehnat samaradorligini oshishida qanday rol o'ynashiga bog'liq.

Hamkorlikda aholini maqbul narxlarda oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlash maqsadida, "Yashil bozor" dala do'konlari faoliyatini yo'lga qo'yilmoqda. "Yashil bozor" dala do'konlari orqali mahsulotlarni aholiga arzon narxlarda yetkazib berish tizimini yo'lga qo'yish rejalashtirilgan.

Axborotlashgan jamiyat iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy jihatdan yanada yuksalishga, mamlakatda ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini va mehnat unumdorligini oshirishga, iqtisodiyotni makro va mikro darajada boshqarishni takomillashtirish hamda istiqbolli ilmiy yo'nalishlarni rivojlantirishga katta zamin yaratib beradi. Bunday jamiyatni barpo etish ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlari va axborot-kommunikatsiyalar texnologiyalarini ilg'or ishlab chiqarish sohalarida qo'llash hamda materiallar va xom-ayosh yaratish bilan chambarchas bog'langan. Jamiyatning asosiy ijtimoiy ishlab chiqaruvchi kuchi sanalmish inson barkamolligi yo'lida axborotlashtirish jarayonlari asosiy negiz bo'lib xizmat qiladi.

Hozirgi kunda fan va texnikada ko'p qo'llaniladigan tushunchalardan biri - tizimdir. Tizim – bu tashkil etuvchilardan iborat bir butunlik degan ma'noni anglatadi. Umumiy holda tizimga quyidagicha ta'rif keltiramiz. Tizim - bu o'zaro bog'liq va yagona maqsadga erishish uchun ma'lum qoida asosida o'zaro munosabatda bo'ladigan elementlar to'plamidir. Bu elementlar to'plami oddiy elementlar yig'indisidagina iborat bo'lmay, har bir element ham o'z navbatida tizim bo'lishi mumkin. Tizimlarni turli belgilarga ko'ra turkumlarga ajratish mumkin. Umuman olganda, tizimlar moddiy yoki mavxum bo'lishi mumkin (mavxum - inson ongi maxsuli). Moddiy tizimlar, asosan moddiy ob'ektlar to'plamidan tashkil topadi. O'z navbatida moddiy tizim anorganik (mexanik, ximik) va organik (biologik) tizimga yoki aralash tizimga ajratiladi. Moddiy tizimlarda asosiy o'rinni ijtimoiy tizim

International Multidisciplinary Scientific Global Conference on Education and Science

Hosted Online from Warsaw, Poland on October 10th, 2022.

www.conferencepublication.com

egallaydi. Bunday tizimning xususiyatlaridan biri insonlar o'rtasidagi munosabatlarni aks ettirishdir. Mavxum tizimlar inson ongining maxsuli bo'lib, har xil nazariyalar, bilimlar, gipotezalardan iborat. Yangi axborot texnologiyasi ham moddiy tizim elementlarini (kompyuterlar, hujjatlar, insonlar), ham no moddiy tizim elementlarini (matematik modellar, inson bilimlari va hokazo) o'z ichiga oladi. SHU orada axborot texnologiyasiga ta'rif berib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Axborot texnologiyasi - obyektning, xodisa yoki jarayonining (axborot maxsulotining) ahvoli haqida yangicha ma'lumot olish maqsadida ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va uzatish vositalari hamda usullari majmuasi (boshlang'ich ma'lumotlar) dan foydalanish jarayonidir.

Axborot tizimlari, deganda qo'yilgan maqsadga erishish uchun axborotni saqlash, unga ishlov berish va uni uzatish maqsadida foydalaniladigan, qo'llaniladigan vositalar, usullar va xodimlarning o'zaro bog'langan majmuasi tushuniladi. Iqtisodiy tizimlar boshqarish nuqtai nazaridan axborot tizimi kabi qaraladi va ko'pincha avtomatlashtirilgan tizim, deyiladi. Bu tizimlarning asosiy vazifasi foydalanuvchilarning talabiga muvofiq ravishda axborotlarni to'plash va tayyorlash, saqlash, uzatish va taqdim etishdan iborat.

Axborot tizimi tegishli iqtisodiy obyektlarda faoliyat ko'rsatuvchi va turlicha tuziluvchi axborotlar majmui uning axborot tizimini tashkil etadi. Axborot tizimlarining asosiy vazifasi – barcha resurslarni samarali boshqarish uchun iqtisodiy obyektlarga kerakli bo'lgan axborotlarni ishlab chiqish, iqtisodiy obyektning boshqarish uchun axborot va texnikaviy muhitni yaratishdan iborat.

Axborot va qarorlar mazmuniga muvofiq iqtisodiy ob'ektda ma'lum bir darajaning axborot tizimi paydo bo'ladi. Axborot tizimidagi ishlar quyidagi maqsadda olib boriladi:

- axborotga bo'lgan ehtiyojni aniqlash;
- axborot to'plashni amalga oshirish;
- tashqi yoki ichki manbalardan axborot kelishini amalga oshirish;
- axborotni qayta ishlash, uning to'liqligi va ahamiyatini baholash hamda uni qulay ko'rinishda taqdim etish;
- iste'molchilarga taqdim etish yoki boshqa tizimga uzatish uchun axborotni chiqarish;
- yo'nalishlarni baholash, bashoratlarni ishlab chiqish, muqobil qarorlar va harakatlarni baholash, strategiyalarni ishlab chiqish uchun axborotlardan foydalanishni tashkil etish;
- mazkur iqtisodiy obyekt xodimi qayta ishlagan axborotlar bo'yicha teskari aloqani tashkil etish, keladigan axborotlarni tuzatishni amalga oshirish. Bu barcha harakatlar iqtisodiy ob'ektning axborot tizimi doirasida u yoki bu axborot texnologiyalari yordamida amalga oshiriladi.

Har qanday iqtisodiy obyekt uchun axborot ehtiyojini aniqlashdan tortib to axborotdan foydalanishgacha bo'lgan tizim ishining ketma-ketligini belgilash eng muhim masala sanaladi. Bu

International Multidisciplinary Scientific Global Conference on Education and Science

Hosted Online from Warsaw, Poland on October 10th, 2022.

www.conferencepublication.com

o'rinda gap, iqtisodiy obyektida hal etiladigan masalalarni turlarga ajratish, axborotlarni olish, qayta ishlash va foydalanish davriyligini belgilash, keladigan va chiqadigan hujjatlarni standartlash, axborotlarni qayta ishlash tartibini standartlash to'g'risida ketayapti. Axborot tizimiga nisbatan so'rovlarni, shuningdek, ularga javobning shakllanish tartibini eskirgan va eskirmagan turlarga bo'lish mumkin.

Eskirgan vazifalarni va axborotni qayta ishlash tartibini ajratib olish ularni shakllantirish, keyinchalik avtomatlashtirish imkonini beradi. Asosiy masala, iqtisodiy ob'ektida foydalaniladigan axborot texnologiyasi buning uchun infratuzilmani ta'minlay olish yoki olmasligida.

Avtomatlashtirilmagan axborot tizimida axborot va qarorlar qabul qilish bilan bog'liq barcha harakatlar inson zimmasiga yuklatilgan. Axborotni qayta ishlash jarayonini avtomatlashtirish algoritmlar doirasida hal qiluvchi qoidalarni qayta ishlashning yuzaga kelishiga olib keladi.

Bugungi kunda mamlakatimizdagi ayrim tarmoqlar va sohalarda eksport hajmi kamayib, import hajmi oshib ketishi, ko'plab kapital mablag'lar sarflanishiga qaramay ishlab chiqarish hajmi va mehnat unumdorligining pasayib ketishi fan-texnika taraqqiyoti yuz berib, yangi texnika va texnologiyalarning kirib kelishiga qaramay ketgan xarajatlar va mahsulot tannarxi pasayish o'rniga aksincha, oshishi holati yuz berishi, valyuta munosabatlarining tartibga solinmaganligi, naqd pul bilan naqd pulsiz hisob-kitoblar o'rtasida farq mavjudligi kabi noxush holatlar sodir bo'lib turibdi.

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlash lozimki, fermer xo'jaliklariga Departament va boshqa mutasaddi idoralar tomonidan amaliy yordamlar ko'rsatilib, ularning yetishtirgan mahsulotlarini "yashil" yo'laklar orqali to'g'ridan-to'g'ri, hech qanday to'siqlarsiz va o'rtakashlarsiz "Daladan-dasturxongacha" tamoyili asosida iste'molchilarga yetkazib berilsa, bundan nafaqat fermer manfaat ko'radi, balki aholimiz ham hamyonbop narxlardagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xodiyev B.Y., Shodmonov Sh.Sh. "Iqtisodiyot nazariyasi". Darslk.- T.: IQTISOD-MOLIYA, 2017.-783b. Toshkent. "Barkamol fayz media"
2. Alimov R.O., Rasulev A.F., Qodiro A.M. "O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish muammolari:nazariya va amaliyot" monografiya T.:CONSAUDITINFORM -NASHR, 2006. – 438b.
3. Майкл Портер. Конкурентная стратегия. Методика анализа отраслей и конкурентов. 5-издание. Издательство-Альпина Паблишер, 2016 г. 456 с.
4. Майкл Портер. Международная конкуренция. Конкурентные преимущества стран. Издательство-Альпина Паблишер, 2017 г. 947 с.

International Multidisciplinary Scientific Global Conference on Education and Science

Hosted Online from Warsaw, Poland on October 10th, 2022.

www.conferencepublication.com

5. Michael E. Porter. Competitive strategy: Techniques Analyzing Industries and Competitors. The free press. New York London Toronto Sydney Singapore. 2017 y. 840 p.
6. Чиркунов Олег Анатольевич Государство и конкуренция; Новое литературное обозрение (НЛО) - М., 2016. - 277 с.
7. Кулешова А. Б. Конкуренция в вопросах и ответах; ТК Велби, Проспект - М., 2016. - 256 с.
8. Овчинников, В. В. Глобальная конкуренция. М.: Институт экономических стратегий, 2016. - 360 с.